



TOSHKENT SHAHRIDA 2019 YIL YANVAR- IYUN OYLARI UCHUNSANOAT MAHSULOTLARI ISHLAB CHIQARISH SOHASINING ASOSIY KO'RSATKICHLARI

Sanoat mahsuloti hajmi

24434,3 mlrd.so'mni,

sanoat ishlab chiqarish

indeksi 103,1 % ni tashkil etdi.

Iste'mol tovarlari ishlab chiqarish hajmi 10772,7 mlrd.so'mni va o'sish sur'ati 107,3 % tashkil etdi.


Iste'mol tovarlarining jami sanoat ishlab chiqarish hajmadagi ulushi 44,8 % ni tashkil etdi.

Sanoat ishlab chiqarishda kichik biznesning ulushi – 66,0 %

Dastlabki ma'lumotlar bo'yicha 2019 yilning yanvar - iyun oylarida Toshkent shahrida faoliyat ko'rsatayotgan sanoat korxonalari tomonidan 24434,3 mlrd.so'mlik sanoat maxsulotlari ishlab chiqarilishiga erishildi va o'tgan yilning mos davriga nisbatan sanoat ishlab chiqarish indeksi 103,1 % ni tashkil etdi.

Jami sanoat ishlab chiqarish hajmi o'sishining asosiy omili bo'lib, ishlab chiqaradigan (qayta ishlash) sanoat hajmi indeksi 103,6 %, tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash 102,4 %, elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash 94,3 % va suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilish 106,2 % ni tashkil qiladi.

2019 yilning yanvar-iyun oylarida asosiy iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat ishlab chiqarish tarkibi, % da



- Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash (indeks - 103,6 %)
- Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash (indeks - 94,3 %)
- Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish (indeks - 106,2%)




TOG'-KON SANOATI VA OCHIQ KONLARNI ISHLASH

Iqtisodiy tarmoqlar kesimida o'rganilganda, joriy yilning yanvar - iyun oyida Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalari tomonidan 1496,5 mlrd.so'mlik maxsulot ishlab chiqarildi va jami ishlab chiqarilgan sanoat maxsulotidagi ulushi 6,1 % ni tashkil etgan.

Tog'-kon sanoatida ishlab chiqarilgan mahsulotlar turi bo'yicha tabiiy gaz va xom neft qazib olish hajmi o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan 106,3 % va boshqa tog'-kon sanoati faoliyati esa 94,6 % ni tashkil etgan.

TOG'-KON SANOATI VA OCHIQ KONLARNI ISHLASH MAHSULOTLARI






ISHLAB CHIQARADIGAN (QAYTA ISHLASH) SANOATI

2019 yilning yanvar-iyun oylarida ishlab chiqaradigan sanoat korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan maxsulotlar hajmi 20982,4 mlrd.so'mni va o'tgan yilga nisbatan ishlab chiqarish indeksi 103,6 %. Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida yuqori texnologiyali tarmog'ining ulushi 4,7 % ni, o'rta-yuqori texnologiyali – 25,2%, o'rta-quyi texnologiyali – 34,2 %, quiyi texnologiyali – 35,9 % ni tashkil etdi.

2019 yilning yanvar-iyun oylarida ishlab chiqarishning texnologik tarkibi bo'yicha ishlab chiqaradigan sanoat tarkibi



- Yuqori texnologiyali
- O'rta-yuqori texnologiyali
- O'rta-quyi texnologiyali
- Quyi texnologiyali

O'z navbatida ishlab chiqaradigan sanoatda o'tgan yilning mos davriga nisbatan boshqa guruhlarga kiritilmagan koks va neftni qayta ishlash mahsulotlarini ishlab chiqarish 44,9 % ga, Yog'och va po'kak buyumlar (mebeldan tashqari), poxol va to'qish uchun materiallardan buyumlar ishlab chiqarish 15.3% ga kamayganligini, elektr energiyasi ishlab chiqarish asbob-uskulalari 21,7 % ga , avtotransport vositalari,treylerlar va yarim priseplar ishlab chiqarish 26,9 % ga oshganligini kuzatamiz.



2018 yil yanvar-iyunda
ishlab chiqarilgan

ISHLAB CHIQARADIGAN (QAYTA ISHLASH) SANOATI

OZIQ-OVQAT MAHSULOTLARI



2019 yil yanvar-iyunda
ishlab chiqarilgan



2236269,9
mln.so'm

2018-yil yanvar-iyunga
nisbatan 104,1 % da

ICHIMLIKLER ISHLAB CHIQARISH



2018-yil yanvar-iyunga
nisbatan 117,9 % da

TAMAKI MAHSULOTLARI



2018-yil yanvar-iyunga
nisbatan 86,3 % da



2018 yil yanvar-iyun
ishlab chiqarilgan

**ISHLAB CHIQARADIGAN
(QAYTA ISHLASH) SANOATI**

TEKSTIL MAHSULOTLARI





2019 yil yanvar-iyunda
ishlab chiqarilgan





2018-yil yanvar-iyunga
nisbatan 119,2 % da

**FARMATSEVTIKA
MAHSULOTLARI VA
PREPARATLARI**



2018-yil yanvar-iyunga
nisbatan 89,9% da

**AVTOTRANSPORT VOSITALARI,
TREYLERLAR VA YARIM
TIRKAMALAR**



2018-yil yanvar-iyunga
nisbatan 126,9 % da




SUV BILAN TA'MINLASH, KANALIZATSIIYA TIZIMI, CHIQINDILARNI UTILIZATSIIYA QILISH.

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilish korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar 486,2 mlrd.so'mni (jami ishlab chiqarilgan mahsulotlari hajmining 2,0 % ni) tashkil etganligi kuzatildi. Bunda 2019 yil yanvar-iyun oylarida suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilish korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilgan maxsulotlar hajmi o'tgan yilning mos davriga nisbatan 6,2 % ga ko'paygan.

ISTE'MOL TOVARLARNI ISHLAB CHIQARISH

Bozor iqtisodiyoti sharoitida iste'mol tovarlari va xizmatlar bozorini rivojlantirish hamda takomillashtirish ustuvor vazifalardan biri sanaladi. Tayyor mahsulotlar turlarini kengaytirish va ishlab chiqarilishni qo'llab-quvvatlash bo'yicha amalga oshirib kelinayotgan chora-tadbirlar natijasida joriy yilning yanvar-iyun oylarida Toshkent shahridagi sanoat korxonalarini tomonidan 10772,7 mlrd. so'mlik iste'mol tovarlari ishlab chiqarildi va 2019-yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 107,3 % ni tashkil etdi.

**2019 yilning yanvar-iyun oylarida iste'mol tovarlari ishlab chiqarish
hajmi va o'sish sur'atlari, % da**






ISTE'MOL TOVARLARINI ISHLAB CHIQARISH

Oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarish 3299,4 mlrd.so'mni tashkil etib, jami iste'mol tovarlaridagi ulushi 30,6 %, nooziq ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarish 7091,6 mlrd.so'm, jami iste'mol tovarlaridagi ulushi 65,8 %, alkogol mahsulotlarini ishlab chiqarish 381,7 mlrd.so'm hisoblanib jami iste'mol tovarlaridagi ulushi 3,5% tashkil etdi.


2019 YILNING JANVAR-IYUN OYIDA TUMANLARNING JAMI ISTE'MOL TOVARLARI ISHLAB CHIQARISH HAJMIDAGI ULUSHI, % DA

Toshkent shahar iste'mol tovarlari ishlab chiqarish hajmida eng ko'p ulush Yashnobod tumani (shahar iste'mol tovarlari ishlab chiqarish hajmining (12,4 % ulushini), Chilonzor (11,3 %) Olmazor (10,7 %), Bektemir (10,3%) va Mirzo Ulug'bek (9,1 %) tumanlari hissasiga to'g'ri kelmoqda. Shu bilan birga eng kam ulush Yakkasaroy (6,7 %) tumani, Yunusobod (6,9 %) va Uchtepa (7,3 %) tumanlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.





**2019 YILNING YANVAR-IYUN OYLARIDA HUDUDLARDA ISTE'MOL
TOVARLARNI ISHLAB CHIQARISH HAJMI, % DA**



Shu o'rinda iste'mol tovarlari ishlab chiqarishda eng yirik o'sish suratlari Bektemir tumani (117,7%), Chilonzor tumani (110,4 %) va Yunusobod tumanlarida (107,2%) kuzatilgan.

Eng kam o'sish sur'atlari esa Olmazor tumani (103,5%) Mirzo Ulug'bek tumani (104,6%) ga to'g'ri keladi.



TOSHKENT SHAHAR STATISTIKA BOSHQARMASI SANOAT STATISTIKASI BO'LIMI



HUDUDLARNING SANOAT ISHLAB CHIQARISHI

Toshkent shahrida sanoat korxonalarini modernizatsiya qilish, texnik va texnologik qayta jihozlash borasida amalga oshirilayotgan ishlar hududda ishlab chiqarish hajmi va sifatini yuksaltirishga xizmat qilmoqda. Toshkent shahri sanoat ishlab chiqarish hajmi tarkibida eng ko'p ulush Mirobod tumani (Toshkent shahri sanoat ishlab chiqarish hajmining 14,3 % ulushini), Yashnobod tumani (12,5 %), Mirzo Ulug'bek tumani (10,4%), Bektemir tumani (10,0 %) va Sergeli tumani (9,5 %) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi.

Shuning bilan birga eng kam ulush Uchtepa (5,4 %), Yakkasaroy (5,5 %), Chilonzor (6,2 %), tumanlariga to'g'ri keladi.

2019 YILNING JANVAR- IYUN OYLARIDA HUDUDLARNING JAMI SANOAT ISHLAB CHIQARISH HAJMIDAGI ULUSHI, % DA






SANOAT ISHLAB CHIQARISHDA KICHIK BIZNESNING ULUSHI

Dastlabki ma'lumotlar bo'yicha 2019 yilning yanvar-iyun oylarida Toshkent shahrida sanoat ishlab chiqarishda kichik biznesning ulush – 66,0 % ni tashkil etgan.

Hududlar kesimida kichik biznesning sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi eng yuqori ulushi Olmazor tumani (jami sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi ulushi 88,6 %), Uchtepa (88,3%), va Yunusobod (87,5 %), Chilonzor (86,1%) tumanlarida kuzatildi.

Shu bilan birga, eng kichkina ulush Mirobod (26,7 %), Mirzo Ulug'bek (42,2%) va Shayxontohur (55,8 %), tumanlarida kuzatildi.

HUDUDLAR BO'YICHA KICHIK BIZNESNING SANOAT MAHSULOTLARI ISHLAB CHIQARISHDAGI ULUSHI, % DA





TOSHKENT SHAHAR STATISTIKA BOSHQARMASI SANOAT STATISTIKASI BO'LIMI



TAYYOR MAHSULOTLAR, BUTLOVCHI QISMLAR VA MATERIALLAR ISHLAB CHIQARISHNI MAHALLIYLASHTIRISH DASTURINING AMALGA OSHIRILISHI

Respublika sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishining rivojlanishiga tayyor mahsulotlar, butlovchi qismlar va materiallar ishlab chiqarishni mahalliylashtirish Dasturining amalga oshirilishi ham o'z ta'sirini ko'rsatdi, mazkur dastur doirasida kiritilgan 367 ta loyiha bo'yicha 1126,3 mlrd.so'mlik mahsulotlar ishlab chiqarilgan bo'lib, 14,7 mln.AQSH dollari miqdorida mahalliylashtirilgan mahsulotlar eksport qilindi va 213 ta yangi ish o'rirlari yaratildi.

O'tgan yilning mos davri bilan taqqoslaganda 2019 yil yanvar-iyun oylarida yangi tashkil etilgan ish o'rirlari soni 9.2 foizga oshdi. Shu bilan birga, 2018 yil yanvar-iyunga nisbatan mahalliylashtirilgan mahsulotlarni eksport hajmi pasayishi kuzatildi.

TAYYOR MAHSULOTLAR, BUTLOVCHI QISMLAR VA MATERIALLAR ISHLAB CHIQARISHNI MAHALLIYLASHTIRISH DASTURINING ASOSIY KO'RSATKICHLARI

	2018 yil yanvar-iyun	2019 yil yanvar-iyun
Loyihalar soni, birlik	446	367
Korxonalar soni, birlik	194	147
Ishlab chiqarish hajmi, mlrd. so'm	2579,9	1126,3
Eksportga qilingan mahalliylashtirilgan mahsulot hajmi, mln. AQSH doll	24,3	14,7
Yaratilgan yangi ish o'rirlari, birlik	195	213

Toshkent shahar statistika boshqarmasi
Sanoat statistikasi bo'limi
Aloqa telefon: (0371) 230-88-16